

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ОЛИЙ ВА ЎРТА  
МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ**

**БУХОРО ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ**

**АГРОНОМИЯ ВА БИОТЕХНОЛОГИЯ ФАКУЛЬТЕТИ  
БИОЛОГИЯ КАФЕДРАСИ**

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ҲУДУДИДАГИ  
СУВ ҲАВЗАЛАРИДА ЎСУВЧИ ТУБАН ВА ЮКСАК  
СУВ ЎСИМЛИКЛАРИНИ КЎПАЙТИРИШ, УЛАРНИ  
ХАЛҚ ХЎЖАЛИГИДА ҚЎЛЛАШ**

**мавзусидаги республика илмий-амалий анжуман  
материаллари**

**Т Ў П Л А М И**

**2020 йил 13 ноябрь**

**Бухоро – 2020**

Ўзбекистон Республикаси шароитида, сув ҳавзалари тубан ва юксак ўсимликлар кенг тарқалганлиги сабабли уларнинг тур таркибини аниқлаш, таркибида оқсил, углевод, ёғ ва витаминларга бой бўлган турларини ажратиш, кўпайтириш ҳамда уларни халқ хўжалигининг турли соҳаларида қўллаш (чорвачиликда, балиқчиликда, паррандачиликда, ипакчиликда, тупрок унумдорлигини оширишда, ҳар хил оқава сувларни тозалашда) ва ушбу соҳалар бўйича илмий-тадқиқот ишларини жадал ривожлантириш ҳамда инновацион технологияларни қўллаш мақсадга мувофиқ бўлади.

Ушбу тўпламда юқорида кўрсатилган йўналишларга бағишланган маърузалар ўз аксини топган.

Анжуман Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2020 йил 7 февралдаги 56-Ф-сонли фармойиши ва Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлигининг 2020 йил 13 февралдаги 116-сонли буйруғига асосан ўтказилмоқда.

2. Музафаров А.М., Эргашев А.Э., Халилов С. Определитель сине-зеленых водорослей Средней Азии.– Ташкент: Фан, 1988. Кн. 2. – С. 406-815.
3. Музафаров А.М., Эргашев А.Э., Халилов С. Определитель сине-зеленых водорослей Средней Азии.– Ташкент: Фан, 1988. Кн.3. – С. 816-1215.
4. Голлербах М.М., Штина Э. А. Почвенные водоросли– Л.: Наука, 1969. – 228 с.
5. Veysel Aysel. Check-List of The Freshwater Algae of Turkey. Turkey Tatli Su Alglerinin Kontrol Listesi // J.Black Mediterranean Environment. Vol. 11. –Turkey, 2005. – P. 1-124.
6. <http://www.algaebase.org/>

## DENGIZKO'L KADASTRI VA O'SIMLIKLAR QOPLAMIGA OID MA'LUMOTLAR

**F. Q. Shodmonov**

*Buxoro davlat universiteti doktoranti*

Dengizko'l Buxoro viloyat Olot tumanda joylashgan.

Koordinatalar: 39°06' N 64°14' E

Balandlik: 181 m den.sath.b

Maydoni: 49658 ga

Qo'riqlanadigan hudud. Ornitologik Davlat buyurtmaxonasi.

Dengizko'l suv havzasi xalqaro (RAMSAR) maqomiga ega. Dengizko'l Buxoro shahridan 75 km janubiy-sharqda uncha uzoq bo'lmagan Turkmaniston respublikasi bilan chegaradosh. Suvu kuchli sho'rlangan. Ancha oldin Dengizko'l Zarafshon daryosining quyilish joyi bo'lgan. Umumiy maydoni 45 ming gektar. Suv sig'imi 0,08 – 1,5 mlrd/m<sup>3</sup>. Eng chuqur joyi 30 m, o'rtacha 10 m.[1]

Asosiy suvni oqova suvlari hisobidan oladi. Keyingi yildagi ma'lumotlar o'zgargan. Sababi kiradigan suv sathining kamayganligi va bug'lanishning yuqori bo'lishi. Ko'lning eng chuqur joyi 20-30 m, o'rtacha 10-15 m. Suv sig'imi 5700mln m<sup>3</sup> hozirgi kundagi suv hajmi 2800mln m<sup>3</sup>. Suv olish manbasi parallel Dengizko'l zovuri. Ko'lga 1994-1995 yillardan boshlab suv kirmayapti. 1995 yilgacha Janubiy kollektordan-10-12m<sup>3</sup>/sek, ABMK ning tashlama kanalidan 10 m<sup>3</sup>/s suv kirgan. Hozirgi kunda Janubiy kollektordan 1,0-1,5 m<sup>3</sup>/s suv kiryapti. Makrofitlar bilan qoplanganligi sayoz bo'lib, xara, rdest, trostnik, qamish bo'lib, asosan qirg'oqlarda kichik suvli ko'lmaklarni egallagan. [2]

Buxoro, Kogon tumanlar quyi hududlarining yer osti sizot suvlari, shuningdek Jondor tumanining bir qism kollektorlari suvlari "Parallel" magistral trakti orqali "Dengizko'l" va "Bosh suv tashlama" ga tushirilib, "Parsanko'l" tashlamasi orqali "Amudaryo" ga tashlanadi. "Parallel" magistral

traktidan chiqarib yuborilgan suv 603,74 mln.m<sup>3</sup> ni va uning mineral tarkibi 5,990 gr/l ni tashkil etdi.

2017 yilda Buxoro viloyatidagi sug'oriladigan maydonlardan kollektorlar orqali 2669,61 mln/m<sup>3</sup> sizot suvlari chiqarildi. Shundan 2626,75 mln/m<sup>3</sup> kollektorlar va 82,18 mln/m<sup>3</sup> tik-drenaj quduqlari orqali chiqarildi. Viloyatning mavjud kollektorlaridagi zax suvlarining sho'rlik darajasi o'zgarib turadi. Buning asosiy sababi ob-havoning issiq kelishi, hamda sug'orishga berilgan suvning tarkibi va tuproq tarkibining sho'rlik darajasi yuqori bo'lganligidir. Qorako'l va Olot tumanlaridagi sug'oriladigan yerlardan chiqadigan sizot suvlarining sho'rlik darajasi juda yuqori bo'lib, o'rtacha 4,0-5,0 gr/litr ni tashkil etadi.

Dengizko'l ko'li 20 yil oldin kollektor suvlarining oqishi natijasida tabiiy ravishda shakllangan. Ko'l janubi-sharqdan shimoli-g'arbiy tomon 40-45 km dan ko'proq cho'zilgan suv havzasidir. Uning shimoli-sharqiy qirg'oq tomoni yumshoq va yalang'och bo'lib, qirg'oq o'simliklari deyarli yo'q. Qarama-qarshi sohilda qamish va lux o'simliklari, shuningdek, orollar ko'rinishidagi o'sib chiqqan massivlar mavjud. Ko'ldagi suv asosan kollektordan keladi va yuqori tuzli.

So'nggi yillarda suvning oqimi kamayib, uning minerallasuvi ortib bordi. Natijada baliqlarning ko'payishi uchun zarur suv muhiti o'zgarib bordi. Shimoliy sohilda bo'sh qumli joylar deyarli topilmaydi. Bu yer tekis, asosan qum bilan qoplangan. Janub qirg'oqlari qumtepalar bilan qoplangan. Saksovul o'rmonlari ko'plab uchraydi. Tuproqning tabiati va uning namlik darajasi o'simlikning rivojlanishini belgilaydi. Saksovul, bir necha turdagi (*Ammodendron conollyi*, *A. karelini*, *A. lehmannii*) va qandim (*Calligonum caput medasae*, *C. oriopodum*), ularda cherkes (*Salsola richteri*), qum akatsiyalari va astragal (*Astragus villalari*) keng tarqalgan. Dengizko'l hududida 34 tur o'simlik bo'lib, shundan 3 tasi Qizil kitobga kiritilgan (*Calligonum palefzkianum*, *C. molle*, *C. matteianum*) 3 tasi tadqiqot hududiga ko'plab uchraydi (*Calligonum rubesurs*, *C. setosum*, *C. eriopodum*). Ko'l va zovurlar atroflarini yantoq (*Alhagi canescens*) va sho'ralar (*Salsola turcomanica*, *S. foliasa*, *Halimocnemus villosa*, *H. strobilaceum*) bilan aralashgan o'simliklar qatlamlari (*Tamarix hispida*, *T. laxa*, *T. litvinovii*) qoplaydi. Ko'l atrofida qamish (*Phragmites communis*), keng bargli lux (*Tupha lafifolia*), boshqoli urut, pemfigus va boshqalar mavjud. Dengizko'lning 40-50 % i sayoz suvlik qismini yuksak suv o'simliklari bilan qoplangan. Ko'lning yuksak suv o'simliklari Janubiy kollektor suvi hisobiga shakllangan. Ko'lda yuksak o'simliklar qirg'oq bo'yi o'simliklari, yarmi suvga botgan holda o'suvchi o'simliklar va to'liq suvga botgan holda o'suvchi o'simliklar guruhlariga bo'linadi. *Potamageton perfoliatus*, *P. crispus*, *P. pectinatus*, *Myriophyllum spicatum*, *Ceratophyllum demersum*, *Chara fragilis*, *Phragmites communis*, *Typha angustifolia*, *T. latifolia*, *Scirpus lacustis*, *Bolboschoenus maritimus* kabi dominant turlar katta maydonlarni egallagan.

Gidrofitlar - tanasining yarmi suvda, yarmi suv yuzasida o'suvchi o'simliklardan *Typha angustifolia*, *T.latifolia*, *Scirpus lacustis*, *Bolboschoenus maritimus*, *Phragmites communis*.

Gidatofitlar - tanasining asosiy qismi suv ostida o'suvchi o'simliklar *Chara fragilis*, *Potamogeton perfoliatus*, *P.cripus*, *P.pectinatus*, *Ceratophyllum demersum*, *Myriophyllum spicatum*. [3]

Ко'лда uchraydigan yuksak suv o'simliklari juda keng tarqalgan bo'lib katta biomassani hosil qiladi.

#### Adabiyotlar ro'yxati

1. Абдуллаев М.А., Урчинов Д.У. Промысловые рыбы водоемов низовьев р. Зарафшан. – Тошкент: Фан, 1989.

2. Ниёзов Д.С. Бухоро воҳаси табиий сувликлари яйлов аквакультурасида садок усулида интенсив балиқ боқиш бўйича методик тавсиялар."Дурдона" нашриёти., Бухоро. 2017. 23-24 бет.

3. Хоразм Маъмун Академияси ахборотномаси. Махсус сон. Бўриев С.Б., Қобилов А.М. Қора-қир кўлдаги сув ўсимликлари ҳисобига балиқ махсулдорлигини ошириш. Хива-2019

### ЗАРАФШОН ДАРЁСИ ЎРТА ОҚИМИ АЛЬГОФЛОРАСИНИНГ МАВСУМИЙ ЎЗГАРИШЛАРИ

<sup>1</sup>Ташпулатов Й.Ш., <sup>2</sup>Қобулова Б.Б., <sup>1</sup>Дустов Б.С.

<sup>1</sup>Самарқанд давлат университети,

<sup>2</sup>Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш  
муҳандислари институти Бухоро филиали

Зарафшон дарёси ўрта оқимида йил фаслларида дарёнинг турли қисмларида турлари сони ва миқдори турлича бўлиши экологик омилларнинг комплекс таъсири остида бўлади (Tashpulatov, Kobulova, 2019; Tashpulatov, Kobulova, 2020).

Дастлабки нуқталарида сувнинг ҳарорати, тиниқлиги ва минераллар миқдорининг (300,5-305 мг/л) нисбатан паст бўлиши, оқим тезлигининг нисбатан юқорилиги турлар сонининг нисбатан камроқ (119 тур) бўлишига олиб келди. Баҳорда дарёнинг дастлабки нуқталарида сувнинг ҳарорати 10-12<sup>0</sup>С, тиниқлиги 0,15-0,20 м, оқим тезлиги 0,75-0,80 м/сек бўлганида сувўтларнинг 48 тур ва тур хиллари (40,34%) кузатилди. Уларнинг 12 та кўкяшил (*Dactylococcopsis raphidioides*, *Merismopedia elegans*), 31 та диатом (*Cyclotella baicalensis f.stellata*, *Fragilaria bicapitata*), 2 та эвглена (*Trachelomonas volvocina*, *Euglena gracilis*) ва 3 тур (*Scenedesmus obliquus*, *Ulothrix zonata*, *Pleurotaenium minutum*) ва тур хилларини яшил сувўтлар ташкил этади. Дастлабки нуқталарида баҳорда пиррофитлар учрамади. Бунга ҳароратнинг нисбатан пастлиги сабаб бўлган (жадвал).

Ёзда сувнинг ҳарорати дастлабки қисмида 18-22<sup>0</sup>С, тиниқлик 0,08-0,10 м, оқим тезлиги 1,50-1,80 м/секга етиши кўкяшил, диатом ва яшил

## М У Н Д А Р И Ж А

### 1-ШЎЪБА

#### СУВ ҲАВЗАЛАРИДАГИ ТУБАН ВА ЮКСАК ЎСИМЛИКЛАРИНИНГ ХИЛМА-ХИЛЛИГИ

Нурниёзов А.А., Ташпулатов Й.Ш., Самарқанд вилоятидаги айрим сув омборлари ва балиқчилик ҳовузларининг гидрофил ўсимликлари	3
Шерназаров Ш.Ш., Ташпулатов Й.Ш. Самарқанд вилояти айрим балиқчилик ҳовузлари альгофлораси таҳлили ва унинг шаклланиш хусусиятлари	6
Исматова З.А. Новқа сув омбори сувўтлари	9
Хусанова О.Ф., Джураев И.К. Тунроқ альгофлорасида cyanophyta бўлимининг таксономик таҳлили	11
Shodmonov F. Q. Dengizko'l kadastrini va o'simliklar qoplamiga oid ta'lumotlar	14
Ташпулатов Й.Ш., Қобулова Б.Б., Дустов Б.С. Зарафшон дарёси ўрта оқими альгофлорасининг мавсумий ўзгаришлари	16
Mustafayeva M.I. Dynamics of growth and development of dominant types of bioponds of cleaning facilities Bukhara	19
Алимжанова Х.А., Юлдашева М.П. Шохимардонсой – марғилонсой альгофлорасининг таксономик таҳлили	21
Алимжанова Х.А., Ражабова М.С. Биологические разнообразие водорослей весене- летнего периода Акдарьинского водохранилища	28
Алимжанов Х.А., Шайимкулова М.А. Об изученности альгофлоры водоемов республики Кыргызистана в период 1893 по 1937 года.	32
Алимжанов Х.А., Шайимкулова М.А. Об изученности альгофлоры водоемов республики кыргызистана в период 1937 по 1965 года	35
Халимова Ш. Э. Альгофлора и химический состав биопрудов г.Бухары и их краткая история изучения	41
Алимжанов Х.А., Шайимкулова М.А. Об изученности альгофлоры водоемов республики Кыргызистана в период 1965-2020 гг	44
Бўриев С.Б., Қобилов А.М., Жабборов Б.И. Қора-қир кўлидаги микроскопик сувўтларининг таҳлили	49
Tolmasova N.G'. Zarafshon baliqchilik xo'jaligi hovuzlarida o'suvchi yuksak suv o'simliklarini aniqlash	51